Пришло ясное осознание того, что мир огромен и в нём есть множество удивительных мест, которые стоит посетить и изучить. Теперь я – путешественник души и сердца, живущий в мире неизведанных троп и удивительных краёв. Дважды в год я переступаю границы родной земли, чтобы ощутить дыхание других народов, погрузиться в их быт и почувствовать энергию новых мест. Но в то же время каждые выходные я отправляюсь на поиски новых приключений по бескрайним просторам родного края, исследуя его тайны и пытаясь познать его красоту и величие.

Dunyo g'oyat katta va tashrif buyurib, o'rganish uchun unda ko'plab ajabtovur joylar mavjud ekanini aniq angladim. Endi esa, men o'rganilmagan so'qmoqlar va ajoyib o'lkalar olamida yashaydigan chinakam sayyohman. Boshqa xalqlar nafasini tuyish, ular hayoti og'ushiga sho'ng'ish va yangi joylar energiyasini his qilish uchun yilda ikki marta Vatanim chegaralarini kesib o'taman. Shu bilan birga, har dam olish kunlari men o'z Vatanimning cheksiz sarhadlari bo'ylab yangi sarguzashtlar sari otlanib, go'zalligi va ulug'vorligini o'rganish harakatida uning sirlarini tadqiq qilaman.







## Мир огромен, и в нём есть множество удивительных мест
## Dunyo g'oyat katta va uchun unda ko'plab ajoyib joylar mavjud

### О повседневной жизни

Основоположник современного менеджмента Питер Друкер в своё время сказал: «У бизнеса есть только две основные функции: маркетинг и инновации, именно они создают прибыль. Всё остальное – затраты». Эта цитата определила траекторию моего пути и практически весь потенциал специальности. Я – маркетолог. Эта профессия оказывает непосредственное влияние на результаты деятельности компании. От эффективности действий маркетолога зависит, сможет ли бизнес успешно конкурировать на рынке и завоевать не только голову, но и сердце целевой аудитории потребителей. И это меня вдохновляет.

### О проекте Wild & Free

Когда-то мы с друзьями загорелись идеей отправиться в труднодоступные природные заповедники, чтобы запечатлеть богатства, скрывающиеся в наших краях, и показать их людям. Но ни одна фотография не сможет передать магию этих мест. У людей появилось желание воочию увидеть эти пейзажи, ощутить дыхание природы, и эта потребность делиться уникальной возможностью с другими путешественниками переросла в проект Wild & Free. Сегодня наше сообщество продолжает набирать всё большую популярность, а для меня самого стал открытием тот факт, что любителей пеших походов «дикарем» невероятно много, и вместе мы открываем новые горизонты. Например, планируем взойти на вершину высотой более 5000 метров над уровнем моря. Она находится за пределами нашей страны, и в целом это будет настоящим испытанием. Но мы готовы преодолеть любые трудности, для того чтобы подарить людям невероятные виды с высоты птичьего полёта. С каждым годом наш список пополняется новыми локациями. Мы исследуем не только отдалённые уголки планеты, но и находим великолепие рядом с нами, поэтому планируем восхождение на самую высокую точку Узбекистана – Хазрет Султан высотой в 4083 метра над уровнем моря. Это обусловлено как потребностью в эстетике, так и стремлением пробудить в сердцах людей любовь к природе и показать, как важно беречь то, что нас окружает.

←
**УШГУЛИ, ГРУЗИЯ**
USHGULI, GRUZIYA

### Kundalik hayot haqida

Zamonaviy menejment asoschisi Piter Druker o'z vaqtida shunday degan edi: «Biznesning faqat ikkita asosiy funktsiyasi bor: marketing va innovatsiya. Marketing va innovatsiyalar daromadni yaratadi. Qolganlarning hammasi xarajatdir». Ushbu iqtibos mening harakat yo'nalishim va mutaxassisligimning deyarli barcha imkoniyatlarini belgilab berdi. Men marketologman.
Bu kasb kompaniya faoliyati natijalariga bevosita ta'sir qiladi. Biznesning bozorda muvaffaqiyatli raqobatlasha olishi va iste'molchilar maqsadli auditoriyasining nafaqat fikri-zikrini, balki qalbini ham zabt eta olishi marketolog harakatlarining samaradorligiga bog'liq. Bu esa meni ilhomlantiradi.

### Wild&Free loyihasi haqida

Bir paytlar men va do'stlarimda borish qiyin bo'lgan tabiat qo'riqxonalariga otlanish, o'lkamizda yashiringan rang-baranglikni suratga olib, ularni odamlarga ko'rsatish ishtiyoqi paydo bo'lgandi.
Biroq, hech bir fotosurat bu joylar sehrini tasvirlab bera olmaydi. Odamlarda bu manzaralarni o'z ko'zi bilan ko'rish, tabiat nafasini his etish istagi paydo bo'ldi va boshqa sayyohlar bilan bu ajoyib imkoniyatni baham ko'rish ishtiyoqi Wild&Free loyihasiga aylandi.
Bugungi kunda, hamjamiyatimiz tobora ommalashib bormoqda. Piyoda sayohat qilishni yoqtiradiganlar juda ko'p ekani men uchun kutilmagan yangilik bo'ldi va biz birgalikda yangi ufqlarni ochmoqdamiz. Masalan, dengiz sathidan 5 000 metr balandlikdagi cho'qqiga chiqishni rejalashtirmoqdamiz. U mamlakatimiz hududidan tashqarida joylashgan va umuman olganda, bu haqiqiy sinov bo'ladi. Ammo, biz odamlarga ajoyib manzaralarni qush uchadigan balandlikdan taqdim etish uchun har qanday qiyinchiliklarni yengishga tayyormiz.
Yil sayin ro'yxatimiz yangi manzillar hisobiga kengaymoqda. Biz nafaqat sayyoramizning chekka burchaklarini o'rganamiz, balki yonimizdagi ko'rkam joylarni ham topamiz. Shuning uchun, O'zbekistonning dengiz sathidan 4 083 metr balandlikda joylashgan eng baland nuqtasi — Hazrat Sultonga chiqish rejalashtirilgan. Bizni bunga nafaqat estetik ehtiyoj da'vat etadi: biz odamlar qalbida tabiatga bo'lgan muhabbatni uyg'otish va tevarak-atrofimizdagi narsalarni asrashimiz naqadar muhimligini ko'rsatishga intilamiz.

CENTRUMAIR





← МИЛАН, ИТАЛИЯ
MILAN, ITALIYA

↓ ВЕРСАЛЬ, ФРАНЦИЯ
VERSAL, FRANSIYA

## О самом длительном путешествии

Я всегда стараюсь уделить путешествию не менее двух недель, ведь иначе невозможно прочувствовать смену обстановки и всю прелесть посещаемой местности. Наиболее длительные поездки осуществлялись в Шри-Ланку, Швейцарию и Португалию – в среднем они занимали более двух недель. В Португалии нам и вовсе удалось провести все новогодние праздники, размах которых моментально развеял миф о том, что в Европе отмечают только Рождество.

## Eng uzoq davom etgan sayohat haqida

Men har doim sayohatga kamida ikki hafta ajratishga harakat qilaman, aks holda, muhit almashganini va tashrif buyurilgan hududning goʻzalligini toʻliq his qilib boʻlmaydi. Eng uzoq sayohatlarim Shri-Lanka, Shvetsiya va Portugaliyaga boʻlgan. Oʻrtacha, ular ikki haftadan koʻproq davom etgan. Portugaliyada barcha yangi yil bayramlarini oʻtkazishga muvaffaq boʻldik va ularning koʻlami Yevropada faqat Rojdestvo bayrami nishonlanadi, degan afsonaga darhol barham berdi.





## О самой запоминающейся поездке

Я считаю, что в каждом уголке планеты найдётся что-то уникальное, что останется с вами навсегда, но для меня самой запоминающейся стала поездка в Швецию. Стокгольм состоит из множества островков, и мы передвигались на очаровательных речных трамвайчиках, что было очень забавно. Потрясающее впечатление произвел Гамла-Стан (старый город), в первую очередь сохранившейся средневековой архитектурой и традиционными блюдами.

А ещё поездка оживает, когда погружаешься в гастрономическое путешествие. Палитра вкусов захватывает с первого кусочка, а незнакомые и необычные блюда, изысканные напитки знакомят с кулинарными сокровищами страны и открывают новые грани удовольствия. Одна из таких поездок – на остров Пхукет, где для меня самым экзотическим поступком было попробовать мясо крокодила. А для тех, кто планирует путешествие на Шри-Ланку, рекомендую забежать в ресторан Sera при Shangri-La Hambantota: там подают совершенно фантастических лобстеров и устриц.

## Eng esda qolarli sayohat haqida

Men sayyoramizning har bir burchagida o'zingiz bilan doimo qoladigan ajojib nimadir bor, deb hisoblayman. Men uchun esa, Shvetsiyaga uyushtirilgan sayohat eng esda qolarlisi boʻldi. Stokgolm koʻplab orollardan iborat. Biz u yerda maftunkor daryo tramvaychalarida harakatlandik va bu juda maroqli boʻldi. Gamla-Stan (eski shahar) esa, oʻrta asrga oid gʻoyat yaxshi holatda saqlanib qolgan meʼmorchiligi va anʼanaviy taomlari bilan bizni hayratda qoldirdi.

Sayohat gastronomik tus olganda safar yanada jonlanadi. Turli taʼmlar palitrasi birinchi luqmadan oʻziga maftun etib, notanish va gʻayrioddiy taomlar, nafis ichimliklar mamlakatning pazandalik sanʼati bilan tanishtiradi va lazzatning yangi qirralarini ochib beradi. Ulardan biri Pxuket oroliga uyushtirilgan sayohat edi, timsoh goʻshtini tatib koʻrish men uchun juda gʻayritabiiy boʻldi. Shri-Lankaga sayohat qilishni rejalashtirayotganlar uchun Shangri-La Hambantota qoshidagi Sera restoraniga tashrif buyurishni maslahat beraman: u yerda dasturxonga mutlaqo gʻaroyib lobster va ustritsalar tortiladi.



## О путешествии в одиночку и с семьёй

Для меня сольное путешествие ассоциируется с трудоёмким и затяжным походом на большие вершины. Я бы не хотел подвергать такому риску свою вторую половинку. Но если вдруг соберусь покорять Эверест, у нас с женой будет рандеву в базовом лагере в Катманду – она прилетит туда на вертолёте.

Путешествие с женой – это возможность прожить каждую эмоцию рядом с ней. Вместе мы создаём воспоминания, наполняющие нашу жизнь красками: преодолеваем границы, смело идем по незнакомым местам и встречаем новых людей, делимся друг с другом каждым мгновением. Поездки становятся не только совместным исследованием, но и отличным способом укрепить наши отношения.

## Yolgʻiz va oilaviy sayohat qilish haqida

Men uchun yolgʻiz sayohat qilish yuksak choʻqqiga mashaqqatli va uzoq davom etgan safarni eslatadi. Turmush oʻrtogʻimni bunday xavf ostiga qoʻyishni xohlamagan boʻlardim. Mabodo, toʻsatdan Everestni zabt etish istagim paydo boʻlsa, rafiqam bilan Katmandudagi bazaviy lagerda uchrashamiz — u vertolyotda uchib keladi.

Turmush oʻrtogʻingiz bilan sayohat qilish — har qanday hissiyotni u bilan birga boshdan kechirish imkoniyatidir. Birgalikda hayotimizga rang-baranglik baxh etadigan xotiralarni yaratamiz: chegaralarni birga kesib oʻtib, notanish joylardan ikkilanmasdan odimlaymiz va yangi odamlar bilan uchrashamiz, har lahzani bir-birimiz bilan boʻlishamiz. Sayohatlar nafaqat umumiy tadqiqot, balki munosabatlarimizni mustahkamlashning eng zoʻr usuliga aylanadi.

↖ ГАЛЬШТАТ. АВСТРИЯ
GALSHTAT, AVSTRIYA

← ПОРТУ. ПОРТУГАЛИЯ
PORTU, PORTUGALIYA











## О планах

Я бы хотел отправиться в Норвегию на своем отечественном автомобиле. Эта страна – обитель величественных фьордов, загадочных ледников и нетронутой природы. И на мой взгляд, ничто не может сравниться с автомобильным путешествием, тем более по такой местности. Это свобода передвижения, ночёвки в невероятных местах, красота дорог, доступность отдалённых мест...

## Rejalar haqida

Men mamlakatimizda ishlab chiqarilgan oʻz mashinamda Norvegiyaga borishni istardim. Bu ulugʻvor fyordlar, sirli muzliklar va inson qoʻli tegmagan tabiatiga ega mamlakat. Mening fikrimcha, avtomobildagi sayohatni, ayniqsa, bunday hududda, boshqa transport turidagi sayohat bilan taqqoslab boʻlmaydi. Bu harakat erkinligi, ajoyib joylarda tunab qolish, yoʻllardagi goʻzallik, olis joylarga borish imkoniyati...

←

**ПАУЛ-ДУ-МАР.**
**МАДЕЙРА, ПОРТУГАЛИЯ**
PAUL-DU-MAR.
MADEYRA, PORTUGALIYS

# Смотрите на мир широкими глазами, без ограничений и стереотипов

# Dunyoga har taraflama, cheklov va stereotiplarsiz nazar soling

## О мерах предосторожности
Во время путешествия может случиться всякое, от этого никто не застрахован. Но в наших силах свести риски к минимуму: тщательно спланировать поездку, изучить страну и её законы, исследовать путеводитель, заранее забронировать всё, что необходимо, и не забывать про страховые полисы. Важно иметь при себе контакты службы спасения, а если вы находитесь за пределами своей страны, вам в помощь будет туристическая полиция. Её сотрудники обладают особыми знаниями и опытом работы с иностранными гражданами и смогут не только помочь, но и предоставить необходимую информацию, направить. Вне зависимости от того, где вы находитесь, имейте при себе аптечку, чтобы в случае непредвиденных обстоятельств вы смогли оказать помощь себе или своим попутчикам. И конечно, не забудьте о копиях важных документов, контактах и координатах близких людей. С уверенностью могу сказать, что внимательность к деталям, готовность к действию и соблюдение мер предосторожности помогают сохранить впечатления яркими и незабываемыми.

## О мечте
В глубинах синего океана, где встречаешься с истинной мощью природы, я мечтаю поплавать с китами, почувствовать силу и благородство этих величественных созданий, насладиться их бесконечной свободой. Хочу отправиться вместе с ними в удивительный подводный мир и слышать музыкально выстроенные звуки, с помощью которых киты общаются.

Жажда познания также подталкивает меня поплавать с акулами, ощутить дыхание этих стражей океана, окруженных бесстрашными созданиями, и стать свидетелем гармонии и сбалансированности цикла жизни этого творения природы. Моим глазам открывается ещё одно прекрасное зрелище: полярное сияние. Когда зелёные и фиолетовые лучи разливаются по небу, создавая неповторимые узоры и магические небесные картины, а я чувствую себя крошечной частицей в этом небесном соединении природы и человека.

## Ehtiyot choralari haqida
Sayohat chogʻida har qanday vaziyat yuz berishi mumkin, bundan hech kim himoyalanmagan. Ammo, xatarlarni minimallashtirish oʻz qoʻlimizda: buning uchun sayohatni puxta rejalashtirish, mamlakat, uning qonunlari va yoʻl koʻrsatkichni oʻrganib chiqish, zarur boʻlgan barcha narsalarni oldindan bron qilish va sugʻurta polislari haqida unutmaslik kerak.
Yoningizda qutqaruv xizmati bilan bogʻlanish uchun kerakli maʼlumotlar boʻlishi juda muhim, agar oʻz mamlakatingizdan tashqarida boʻlsangiz, sizga sayyohlik politsiyasi yordam beradi. Uning xodimlari chet el fuqarolari bilan ishlash borasida maxsus bilim va tajribaga ega boʻlib, nafaqat yordam berishlari, balki kerakli maʼlumotlarni taqdim etishlari, yoʻl koʻrsatishlari mumkin.
Qayerda boʻlishingizdan qatʼiy nazar, kutilmagan holatlarda oʻzingiz yoki hamrohlaringizga yordam bera olishingiz uchun birinchi yordam toʻplamini olib yuring. Albatta, muhim hujjatlarning nusxalari, yaqinlaringizning kontaktlari va manzillari haqida ham unutmang.
Tafsilotlarga eʼtiborli boʻlish, harakat qilishga tayyor turish va ehtiyot choralarini koʻrishga rioya qilish taassurotlaringizning yorqin va unutilmas boʻlib qolishiga yordam beradi, deb ishonch bilan ayta olaman.

## Orzuim haqida
Tabiatning haqiqiy qudrati bilan uchrashish mumkin boʻlgan moviy okean qaʼrida kitlar bilan yonma-yon suzishni orzu qilaman. Bu ulugʻvor mavjudotlarning kuchi va olijanobligini his qilish, ularning cheksiz erkinligidan bahramand boʻlishni istayman. Kitlar bilan birgalikda suv osti dunyosiga shongʻishni va ular oʻzaro muloqot qiladigan musiqiy tovushlarni eshitishni xohlayman.
Olamni oʻrganishga boʻlgan xohish meni tark etmayapti va hali ham akulalar bilan suzishni, suv osti dunyosining sirli hayoti pardasi ortiga nazar solishni istayman. Qoʻrqmas mavjudotlar orasida okean gigantlarining nafasini his etish, tabiatning bu goʻshasida hayot siklining uygʻunligi va muvozanatiga guvoh boʻlish ham orzuim.
Koʻz oʻngimda yana bir goʻzal manzara namoyon boʻlmoqda: shimol yogʻdusi.
Yashil va binafsha nurlar osmonu falak boʻylab tarqalib, oʻziga xos naqshlar va sehrli samoviy suratlarni yaratganida, men oʻzimni tabiat va insonning bu samoviy birikmasidagi mayda zarracha kabi his etishni istayman.

→ **БРИЕНЦ, ШВЕЙЦАРИЯ**
BRIENS, SHVEYSARIYA









↑ **БОЛЬШОЙ ЧИМГАН, УЗБЕКИСТАН**
KATTA CHIMYON, OʻZBEKISTON

← **ОХОТНИЧИЙ ПИК, УЗБЕКИСТАН**
OVCHILAR CHOʻQQISI, OʻZBEKISTON

## Советы читателю

Суть путешествия заключается не только в увиденных местах, но и в процессе исследования, неожиданностях, встречах с интересными людьми и открывающихся возможностях для души и ума. Каждое путешествие – это возможность расширить свои горизонты, обрести новые знания и найти себя внутри этого бесконечного мира. Смотрите на мир широкими глазами, без ограничений и стереотипов: осматривайте достопримечательности, погружайтесь в местную культуру, пробуйте новую кухню, встречайтесь с местными жителями и дайте себе возможность почувствовать и проникнуться духом места. Ведь именно так мы можем найти истинную гармонию, вдохновение и новые идеи, которые сделают нас лучше и счастливее. Так что не стесняйтесь и не откладывайте на потом свои мечты о путешествиях. Выпустите своё воображение на волю, откройте карту мира и смело отправляйтесь на поиски собственного приключения. Оставьте свой след в каждом уголке мира и проникнитесь его красотой и величием, потому что в итоге не места, которые мы посещаем, а сам процесс путешествия и наши внутренние изменения делают жизнь такой потрясающей.

## Oʻquvchi uchun maslahatlar

Sayohatning mohiyati nafaqat yangi joylarni koʻrish, balki ularni oʻrganish jarayonida, kutilmagan hodisalarda, qiziqarli odamlar bilan uchrashuvlarda, inson ruhi va ongi uchun ochiladigan imkoniyatlardan ham iborat. Har bir sayohat dunyoqarashingizni kengaytirish, yangi bilimlarga ega boʻlish va bu cheksiz olamda oʻzingizni topish imkoniyatidir.
Dunyoga har taraflama, cheklov va stereotiplarsiz nazar soling. Diqqatga sazovor joylarni tomosha qiling, oʻsha yerning madaniyati ogʻushiga choʻming, yangi taomlarni tatib koʻring, mahalliy aholi bilan uchrashing, oʻzingizga ushbu joy ruhini chuqur his etish imkoniyatini bering. Axir, bizni yanada yaxshiroq va baxtliroq qiladigan haqiqiy uygʻunlik, Ilhom va yangi gʻoyalarni shu tarzda topishimiz mumkin. Shuning uchun, tortinmang va sayohat borasidagi orzularingizni chetga surmang. Tasavvuringizga erkinlik bering, dunyo xaritasini oching va dadillik bilan oʻz sarguzashtingiz sari otlaning. Dunyoning har bir burchagida oʻz izingizni qoldiring, uning goʻzalligi va ulugʻvorligini his eting. Chunki oxir-oqibat biz tashrif buyurgan joylar emas, balki, sayohat jarayonining oʻzi va ichki oʻzgarishlarimiz hayotimizni mana shunday hayajonli qiladi.



# Выше облаков
## Bulutlardan yuksakda

В детстве мы хотим побывать там, где никогда ранее не бывали. Сначала это соседний двор, потом ближайший район, затем – другие города. В нас живёт дух путешественника, мы мечтаем быть первопроходцами в разных сферах жизни. Именно поэтому кто-то становится географом или историком, археологом или антропологом, мореплавателем или пилотом самолёта. Но часто выходит так, что мечта детства так и остаётся всего лишь мечтой. И будучи взрослыми, мы не выходим дальше своего двора. Как осуществить свою мечту о путешествии в далёкие страны? У нас есть ответ: стать пилотом Centrum Air.

Bolalikda biz ilgari hech qachon boʻlmagan joyga borishni istaymiz. Dastlab bu qoʻshni hovli, keyin eng yaqin mahalla, oxirida -boshqa shaharlar. Bizda jahongashtalik ruhi yashaydi, hayotning turli sohalarida kashshof boʻlishni orzu qilamiz. Aynan shuning uchun kimdir geograf yoki tarixchi, arxeolog yoki antropolog, dengizchi yoki samolyot uchuvchisiga aylanadi. Ammo, koʻpincha bolalikdagi orzu shunchaki orzu boʻlib qolaveradi. Ulgʻaygach hovlimizdan tashqariga chiqmay qoʻyamiz. Uzoq mamlakatlarga sayohat qilish orzusini qanday amalga oshirish mumkin? Bizda bunga javob bor: Centrum Air uchuvchisi boʻlish.



**Чтобы стать частью команды пилотов авиакомпании Centrum Air (возраст кандидата — до 50 лет), в своём багаже необходимо иметь следующее:**

Centrum Air aviakompaniyasining uchuvchilar jamoasi safiga qoʻshilish uchun siz (nomzodning yoshi - 50 yoshgacha) quyidagilarga ega boʻlishingiz kerak:

1. Не менее 500 часов налёта в качестве командира воздушного судна (КВС) или второго пилота;
Havo kemasi sardori (HKS) yoki ikkinchi uchuvchi sifatida kamida 500 soat parvoz tajribasi;

2. Документ, подтверждающий свидетельство пилота гражданской авиации (CPL, ATPL), выданный Авиационной администрацией Республики Узбекистан или иностранного государства;
Oʻzbekiston Respublikasi yoki xorijiy davlat Aviatsiya maʼmuriyati tomonidan berilgan fuqaro aviatsiyasi uchuvchisi guvohnomasini (CPL, ATPL) tasdiqlovchi hujjat;

3. Действующий документ, подтверждающий уровень владения английским языком (уровень 4 по шкале ICAO), выданный Авиационной администрацией Республики Узбекистан или иностранным государством;
Oʻzbekiston Respublikasi yoki xorijiy davlat Aviatsiya maʼmuriyati tomonidan berilgan ingliz tilini bilish darajasini tasdiqlovchi (ICAO shkalasi boʻyicha 4-daraja) amaldagi hujjat;

4. Трудовую книжку, свидетельствующую о работе и занимаемых должностях за последние 5 лет;
Soʻnggi 5 yil ichidagi ish joyi va egallagan lavozimlarni tasdiqlovchi mehnat daftarchasi;

5. Перерыв в лётной работе не более одного года до даты подачи заявления;
Ariza berilgan sanada parvozlar orasidagi tanaffus bir yildan ortiq boʻlmasligi kerak;

6. Удостоверение личности (ID Card) и/или международный паспорт;
shaxsni tasdiqlovchi hujjat (ID-karta) va/yoki xalqaro pasport;

7. Рекомендательное письмо с последнего места работы на узбекском, русском или английском языке.
Oxirgi ish joyidan oʻzbek, rus yoki ingliz tilidagi tavsiyanoma.

* Гражданство не имеет значения.
* Fuqarolik – muhim emas.

Резюме отправлять на почту:
Rezyume quyidagi pochtaga yuboriladi
**info@centrum-air.com**








СТАВ ЧАСТЬЮ КОМАНДЫ CENTRUM AIR, ВЫ ПОЛУЧАЕТЕ:

CENTRUM AIR JAMOASI SAFIDA BOʻLISHNING AFZALLIKLARI:

Возможность улучшать свои навыки и профессионализм в процессе работы с опытной командой пилотов, а также повышать квалификацию в специальных учебных центрах;
Tajribali uchuvchilar jamoasi bilan ishlash jarayonida oʻz koʻnikmalaringiz va professional darajangizni oshirish, shuningdek, maxsus oʻquv markazlarida malaka oshirish imkoniyati;

Достойную заработную плату, бесплатное питание и много других бонусов.
Munosib ish haqi, bepul ovqat va boshqa koʻplab bonuslar kutmoqda.

## Где пройти обучение, если нет подходящих навыков

## Koʻnikmalar yetarli boʻlmaganda qayerda taʼlim olish mumkin

Первоначальную подготовку пилотов гражданской авиации можно пройти в учебно-тренировочном центре Training Center. Подробная информация представлена на официальном сайте aviatraining.uz

В авиакомпании Centrum Air работают настоящие мастера своего дела, потому рассматриваются кандидаты исключительно с опытом налёта не менее 500 часов. Как только будет наработан данный стаж, мы будем рады видеть вас в составе нашей команды.

Fuqaro aviatsiyasi uchuvchilari uchun dastlabki tayyorgarlikni Training Center oʻquv-mashq markazida oʻtkazish mumkin. Bu haqda batafsil rasmiy veb-saytda tanishish mumkin: aviatraining.uz

Centrum Air aviakompaniyasida haqiqiy professionallar va oʻz sohasining mutaxassislari ishlaydi, shu sababli, kamida 500 soat parvoz tajribasiga ega boʻlgan nomzodlar koʻrib chiqiladi. Ushbu tajribani toʻplaganingizdan soʻng, sizni jamoamiz safida koʻrishdan mamnun boʻlamiz.

# Parvoz ortidagi hayot

## За кулисами полёта



Что для нас перелёт? Способ преодоления тысяч километров для того, чтобы увидеть океан, заключить важную сделку или навестить родных и близких после долгой разлуки. А для кого-то это – рабочие будни, которые требуют собранности, внимательности и серьезной подготовки. Мы видим заботу и поддержку бортпроводников, но не имеем полного представления о том, с чем они сталкиваются, как справляются со стрессом и готовятся к полёту.
Мы провели день перед вылетом с Амалией Душацкой — умницей, красавицей-бортпроводницей авиакомпании Centrum Air, и делимся своими наблюдениями.

Biz uchun parvoz — okeanni ko'rish, muhim bitimni tuzish yoki uzoq ayriliqdan so'ng qarindosh-urug'larimizni va do'stlarimizni ko'rish uchun minglab kilometrlarni bosib o'tishning bir usuli. Kimdir uchun esa bu – e'tiborni, ziyraklikni va jiddiy tayyorgarlikni talab qiladigan ish kunlari hisoblanadi. Biz bort kuzatuvchilarining g'amxo'rligi va ko'magini ko'rsak-da, lekin ularning nimalarga duch kelishi, stressni qanday yengishi va parvozga qanday tayyorgarlik ko'rishi haqida to'liq tasavvurga ega emasmiz.
Biz parvoz arafasidagi kunni Centrum Air aviakompaniyasining aqlli va go'zal bort kuzatuvchisi Amaliya Dushatskaya bilan o'tkazdik va sizlar bilan o'z kuzatishlarimizni bo'lishamiz.







### Утро, кофе, знакомство

Мы договорились встретиться с Амалией легко и непринуждённо, с первых же фраз чувствовалась некая теплота, открытость и доброжелательность. По итогу встречи стало понятно, что это важные и одни из основополагающих качеств бортпроводников.
Амалия поделилась планами на день: ознакомиться с грядущим перелётом, провести рефреш знаний о технике безопасности и составить план по персональному блогу.
Нашей героине присущи собранность и прагматичность. При встрече с нами Амалия сперва открыла приложение Meridian*, где ознакомилась со всеми деталями перёлета: временем вылета, маршрутом, моделью самолёта и списком экипажа. Это необходимо для того, чтобы знать, где находится аварийно-спасательное оборудование, расположение которого отличается в каждой модели самолёта. Освежить свои знания – неотъемлемая часть подготовки.

**Meridian.Crew App – мобильное приложение для лётных составов, обеспечивающее доступ к плану полёта, полному перечню необходимых руководств и ускоряющее документооборот в авиакомпании.*

### 5 часов до вылета

Именно столько времени занимают сборы. Если вылет в первой половине дня, то подготовка начинается с раннего подъема и кофе. Форма и чемодан готовы заранее. На рутинные сборы выделяется примерно два часа, и далее следует важный, ставший многолетней семейной традицией ритуал: в спальне героини, между макетами самолётов, располагается маленький Будда, которого обязательно надо потереть на удачу.
Ещё один ритуал совершается непосредственно перед вылетом – заходя в самолёт, нужно поприветствовать его особым образом. Кто-то стучит по нему три раза, а наша героиня бросает тёплое: «Привет, птичка».

### Tong, qahva va tanishuv

Biz Amaliya bilan uchrashuvni samimiy va tortinchoqlik qilmasdan o'tkazishga kelishib olgandik. Uning birinchi jumlalaridanoq qandaydir iliqlik, ochiqlik va xayrixohlik sezildi. Uchrashuv yakuniga kelib, bu bort kuzatuvchilarining muhim va asosiy fazilatlaridan biri ekanligi ma'lum bo'ldi.
Amaliya kun rejalari bilan o'rtoqlashdi: bo'lg'usi parvoz bilan tanishish, xavfsizlik bo'yicha bilimlarni yangilash va shaxsiy blogi uchun reja tuzish.
Bizning qahramonimiz o'z ziyrakligi va pragmatikligi bilan ajralib turadi. Uchrashganimizda Amaliya avval Meridian* ilovasini ochdi, u yerda parvozning barcha tafsilotlari: jo'nash vaqti, yo'nalish, samolyot modeli va ekipaj ro'yxati bilan tanishdi.
Bu har bir samolyot modelida qutqaruv uskunalarining joylashuvi turlicha bo'lgani sababli, ularning qayerda turishini bilish uchun zarur. O'z bilimlarini yangilash esa, tayyorgarlikning ajralmas qismi hisoblanadi.

**Meridian.Crew App — parvoz tarkibiga parvoz rejasi, kerakli qo'llanmalarning to'liq ro'yxatidan foydalanishni ta'minlaydigan va aviakompaniyada hujjat aylanishini tezlashtiradigan mobil ilova.*

### Parvozdan 5 soat oldin

Tayyorgarlik aynan shuncha vaqtni oladi. Agar parvoz kunning birinchi yarmida bo'lsa, tayyorgarlik uyqudan erta sahar uyg'onish va qahva ichish bilan boshlanadi. Kiyim-bosh va chamadon oldindan hozirlangan. Odat tusiga kirgan tayyorgarlikka taxminan ikki soat ajratiladi, keyingisi muhim, ko'p yillik oilaviy an'anaga aylangan marosim – qahramonimiz yotoqxonasidagi samolyot maketlari orasida joylashgan kichik Budda haykalchasini omad keltirishi uchun silash amalga oshiriladi.
Yana bir taomil – samolyot bilan o'zgacha salomlashish unga chiqishdan oldin bajariladi. Kimdir uni uch marta shapatlab urib qo'yadi, bizning qahramonimiz esa iliqqina: «Salom, qushcha» deb salomlashadi.

> «Кто-то мечтает о "Бентли", а я — о собственном самолёте»
>
> «Kimdir "Bentli"ni, men esa – o'z samolyotimni orzu qilaman»

Дорога до аэропорта занимает немного времени, но Амалия выезжает раньше, чтобы приехать без опоздания. Далее проводится брифинг, где проходит обязательное ознакомление с документацией по рейсу, обсуждаются особенности полёта, например, «болталка» – именно так называют турбулентность члены экипажа. Затем каждому бортпроводнику выдаются номера, за которыми закрепляются обязанности на борту. Один отвечает за двери, другой — за бытовой инвентарь и накладные, которые в обязательном порядке принимаются и сдаются следующим членам экипажа, когда самолёт переходит к другой бригаде.

Перед вылетом и после посадки осуществляется проверка всего инвентаря и аварийно-спасательного оборудования. С особым трепетом Амалия рассказывает, как важно бортпроводнику проверить свою зону, насколько серьезно нужно отнестись к данной процедуре.

Амалия приводит простой пример, который кажется киношным приёмом, но зачастую случается в реальности: необходимость проверять посадочные талоны — это следствие того, что иногда пассажиры путают рейсы, заходят не в свой самолет и отправляются в незапланированное путешествие.

Успокоить пассажиров тоже надо уметь. Из рассказов нашей героини мы поняли, что поделиться переживаниями с бортпроводником можно и даже нужно. Они вас успокоят, ответят на вопросы, касающиеся перелёта, окажут заботу и поддержку, если вы подвержены аэрофобии.

Aeroportga yetib borish ko‘p vaqtni olmaydi, ammo, kechikmaslik uchun Amaliya ertaroq yo‘lga chiqadi. Keyinchalik, parvoz hujjatlari bilan majburiy tanishish amalga oshiriladigan brifing o‘tkaziladi, parvoz xususiyatlari, masalan, ekipaj a’zolari «chayqalish», deb ataydigan turbulentlik kabi holatlar muhokama qilinadi. So‘ngra, har bir bort kuzatuvchisiga bortdagi vazifalari belgilangan raqamlar beriladi. Biri eshiklar uchun, ikkinchisi – doimiy ravishda qabul qilinadigan va samolyot keyingi brigadaga berilayotganda, boshqa ekipaj a’zolariga topshiriladigan maishiy anjomlar va hisob-varaqalar uchun javobgar bo‘ladi.

Parvozdan oldin va keyin barcha anjomlar va avariya qutqaruv uskunalari tekshiriladi. Amaliya bort kuzatuvchisi o‘z hududini tekshirishi qanchalik muhimligini, bu tadbirga jiddiy munosabatda bo‘lish kerakligini o‘zgacha hayajon bilan tilga oladi.

Amaliya faqat kinolarda uchrashi mumkindek tuyuladigan oddiy, lekin ko‘p sodir bo‘ladigan holatni misol qilib keltiradi: bortga chiqish talonlarini tekshirish zarurati — bu ba’zida yo‘lovchilar reyslarni chalkashtirib yuborishlari, begona samolyotga chiqishlari va rejalashtirilmagan sayohatga uchib ketishlarining natijasi.

Shuningdek, yo‘lovchilarni tinchlantirishni ham bilish kerak. Qahramonimiz hikoyalaridan ayon bo‘ldiki, yo‘lovchi o‘z xavotirlari bilan bort kuzatuvchilariga murojaat qilishi mumkin va hatto zarur. Ular sizni tinchlantirishadi, parvoz bilan bog‘liq savollarga javob berishadi, agar aerofobiyaga moyil bo‘lsangiz, sizga g‘amxo‘rlik ko‘rsatishadi va yordam berishadi.

«Всё должно быть рассчитано по секундам, и авиаторам необходимо следовать строгим правилам. Каждое из них — это следствие событий, которые уже произошли, и их нужно выполнять ответственно, включаясь в процесс, чтобы подобное не повторилось».

«Barcha narsa har bir soniyagacha hisobga olinishi va aviatorlar qat’iy qoidalarga rioya qilishlari kerak. Qoidalarning har biri – bu qachonlardir sodir bo‘lgan voqealarning oqibati va holat boshqa takrorlanmasligi uchun jarayonga kirishib, mas’uliyat bilan ularni bajarish kerak».






## Мечта сбылась

Невероятная история о том, как Амалия стала бортпроводницей, – свидетельство того, как случайные события порой влияют на нашу судьбу.

*«Это не было мечтой всей моей жизни. Изначально я планировала свою карьеру в медицине и хотела стать хирургом, но есть один человек, который повлиял на мою судьбу.*

*Мне было 12 лет. Мама работала врачом-косметологом, и к ней приходила очаровательная девушка. Она всегда была с иголочки одета, я даже пару раз видела её в форме и до сих пор помню запах её парфюма. Я всегда думала: «Какая же она красивая!», а мама спрашивала, хочу ли я стать стюардессой. Для меня это не стало мечтой, но этот образ я четко запомнила.*

*Всё это забылось, и я пошла учиться в медицинский колледж. Спустя несколько лет случайно узнала о том, что объявили конкурсный отбор для бортпроводников, и загорелась. Перед глазами возник так очаровавший меня когда-то образ из детства.*

*Я понимала, что предстоит серьёзная подготовка: языки, политика, география – и всё должно быть на солидном уровне. На протяжении полугода занималась каждый день, весь мой график был расписан по минутам.*

*Накануне отбора записалась на макияж и причёску, а в сам «день X» встала в 4 часа утра, надела юбку, которая была похожа на форму стюардессы – настолько хотела сразу создать нужное впечатление и выглядеть так, будто меня уже приняли на работу. В тот день я нервничала, но как сейчас помню все этапы. Нам задали множество вопросов, которые показывали уровень подготовки, стрессоустойчивость и отношение к будущей работе в том числе. Когда я узнала, что прошла, сразу позвонила маме, в слезах сообщила ей радостную весть и сама долго не могла поверить в это».*

После собеседования началась проверка здоровья: физического и психологического, потому что оно должно быть идеальным. Кстати, тестирование у психолога отсеяло многих. Человек должен быть уравновешенным, собранным, ответственным, эмпатичным и уметь работать в команде, ведь в воздухе крайне важно понимать друг друга без слов.

## Orzu roʻyobga chiqdi

Amaliyaning bort kuzatuvchi boʻlishi — baʼzan tasodifiy voqealar taqdirimizga qanday taʼsir qilishi haqidagi aqlga sigʻmas hikoya.

*«Umrim boʻyi bu haqida orzu qilmaganman. Dastlab tibbiyotdagi karyerani rejalashtirgan edim va jarroh boʻlishni xohlardim. Ammo, taqdirimga taʼsir koʻrsatgan bir inson bor. Men 12 yoshda edim. Onam shifikor-kosmetolog boʻlib ishlar va uning qabuliga bir dilbar qiz kelar edi. U har doim did bilan bejirim kiyingan boʻlardi, hatto bir necha bor uni maxsus kiyim-boshda ham koʻrganman va undan ufurib turgan atir iforini haligacha eslayman. «Buncha ham goʻzal!» deb oʻylardim, onam esa: «Bort kuzatuvchisi boʻlishni xohlaysanmi?» deb soʻrardi. Bu orzuimga aylangani yoʻq, lekin bu timsol xotiramda yorqin iz qoldirdi.*

*Bularning barchasi unutildi va men tibbiyot kollejiga oʻqishga kirdim. Bir necha yil oʻtgach, tasodifan bort kuzatuvchilarni ishga olish maqsadida tanlov eʼlon qilinganidan xabar topdim va menda ishtiyoq uygʻondi. Koʻz oʻngimda bir vaqtlar meni maftun etgan bolaligimdagi oʻsha timsol gavdalandi.*

*Jiddiy tayyorgarlik koʻrish kerakligini tushunardim: tillar, siyosat, geografiya – barchasi yuqori darajada boʻlishi kerak. Olti oy davomida har kuni shugʻullandim, kunimning har bir daqiqasi rejalashtirilgan edi.*

*Tanlov kuni arafasida men makiyaj va soch turmagi qildirdim, «X» kuni sahar soat 4 da turdim, styuardessalarnikiga oʻxshash yubkamni topdim — tezda kerakli taassurot qoldirish va allaqachon ishga qabul qilingandek koʻrinishda boʻlishni xohlardim. Oʻsha kuni juda asabiy edim, lekin hali ham barcha bosqichlarni eslayman. Bizga tayyorgarlik darajasi, stressga chidamlilik va boʻlajak ishga munosabatni ochib beradigan koʻplab savollar berildi. Tanlovdan oʻtganimni bilganimda, darhol onamga qoʻngʻiroq qildim, koʻz yoshlarimni tiyolmay quvonchli xabarni unga yetkazdim va uzoq vaqt bunga ishona olmadim».*

Suhbatdan soʻng jismoniy va psixologik sogʻliq tekshiruvi boshlandi, chunki u ideal boʻlishi kerak edi. Psixolog testi esa saralab, koʻpchilikni oʻtkazmadi. Kishi vazmin, diqqatini jamlay oladigan, masʼuliyatli, empatik boʻlishi va jamoada ishlay bilishi kerak, chunki havoda bir-birini soʻzsiz tushunish juda muhim.



## Нас меняет работа

> *«Стоило мне прийти в эту профессию, появились ответственность и пунктуальность, что, конечно, находит отражение в жизни. Это и про чек-листы перед сборами, и просчитывание всего наперед, и недопущение опозданий. Наряду с этим появилось бережное и серьезное отношение к своему здоровью – для нас это важно».*

Сдержанность и уместность вырабатываются со временем, более спокойным становится и стиль в одежде. Работа бортпроводников тесно связана с постоянным повышением квалификации, проверкой здоровья, и все эти мероприятия настраивают на серьезный подход ко всему.
Личные истории героини дали нам понять, насколько необходимо уметь отключать на время свою жизнь и переживания и фокусироваться на своих обязанностях. Что бы ни случилось до вылета, бортпроводник не должен поддаваться эмоциям и расклеиваться, ведь на нём лежит невероятная ответственность, которая требует полной включённости. При этом работа не лишена человеческого фактора: события бывают непредсказуемы и всегда есть опция замены сотрудника в случае непредвиденных обстоятельств.





## Ish bizni oʻzgartiradi

> *«Bu kasbni boshlashim bilan menda mas’uliyat va puxtalik paydo boʻldi. Albatta, bu hayotda ham aks etadi. Bu tayyorgarlikdan oldingi chek-varaqalar va hamma narsani oldindan hisoblash, hamda hech qachon kechikmaslikka ham taalluqli. Shu bilan birga, sogʻligʻimga nisbatan ehtiyotkor va jiddiy munosabatda boʻla boshladim —biz uchun bu juda muhim».*

Vaqt oʻtishi bilan vazminlik va oʻzini tuta bilish shakllanadi, kiyim-bosh uslubi yanada oddiy tus oladi. Bort kuzatuvchilarining ishi doimiy malaka oshirish, sogʻligʻini tekshirish bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, bu tadbirlarning barchasi hamma narsaga jiddiy yondashishni talab qiladi. Qahramonimiz boshidan kechirgan voqealar shaxsiy hayot va tashvishlarni birmuncha vaqtga unutib, oʻz vazifalariga e’tibor qaratish qanchalik zarurligini tushunishimizga imkon berdi. Parvozdan oldin nima roʻy berishidan qat’iy nazar, bort kuzatuvchisi his-tuygʻularga berilmasligi va boʻshashmasligi lozim, axir uning zimmasida toʻliq ishtiroki talab etiladigan aql bovar qilmas javobgarlik bor. Shu bilan birga, ishda inson omilini inkor etib boʻlmaydi: voqealarni oldindan koʻrib boʻlmaydi va har doim kutilmagan holatlarda xodimni almashtirish imkoniyati mavjud boʻladi.

## «Внешние факторы бывают разные, и нужно быть готовым ко всем вариантам развития событий»

## «Tashqi omillar turlicha boʻlishi mumkin va voqealar rivojining barcha variantlariga tayyor boʻlish kerak»

Разговорились и про стереотипы: многие считают, что бортпроводники отвечают только за еду и напитки, хотя их первоочередная задача – это обеспечение безопасности и умение в случае необходимости оказать первую медицинскую помощь или даже принять роды.
Имидж авиакомпании во многом держится на стюардах и стюардессах. Пассажиры часто обращают внимание на то, как они выглядят, разговаривают. Мнение складывается из совокупности факторов и немаловажно, как нас приветствуют на борту самолета, откликаются ли на просьбы, чувствуем ли мы себя людьми, чья безопасность и комфорт у членов экипажа на первом месте.

### Важное — в мелочах

В перерывах подготовки к рейсу Амалия рассказывает, как авиационная безопасность отражается в интересных и порой неожиданных мелочах. Например, пилотам предоставляются разные позиции меню – таким образом в случае отравления второй пилот будет в строю. Ещё неочевидный момент: членов семьи не ставят в один рейс, ведь в случае чрезвычайной ситуации они будут спасать друг друга, а не пассажиров.
Помимо всей необходимой документации у Амалии с собой имеется блокнот со сценариями для личного блога. В инстаграм-аккаунте amaliya_dushackaya героиня легко и с юмором показывает жизнь на борту. Также у неё в планах снимать информативные видео, где будет больше «изнанки»: к примеру, как и где пройти обучение на бортпроводника.
Всегда интересно заглянуть в закулисье и увидеть, что герои воздушного пространства – такие же люди, как мы. И как-то даже тепло становится от слов Амалии о команде: как люди поддерживают и помогают друг другу. Отзывчивость и эмпатия отражаются и в традиции кормить котиков-иностранцев, и в какой бы стране ни были члены команды Centrum Air, они берут с собой кошачий корм и оказывают помощь приютам.
Так за несколько часов подготовки к вылету мы увидели, насколько ответственно подходят к своей работе бортпроводники, прочувствовали в полной мере всю любовь нашей героини к своему делу и поняли: что бы ни случилось, мы, пассажиры, всегда будем на первом месте для экипажа.

Shuningdek, stereotiplar haqida ham suhbatlashdik: koʻpchilik bort kuzatuvchilari faqat oziq-ovqat va ichimliklarga javobgar deb hisoblashadi, ammo, ularning asosiy vazifasi — bu xavfsizlikni ta’minlash va zarurat tugʻilganda, birinchi tibbiy yordam koʻrsatishni yoki hatto, doyalik qilishni bilishi kerakligi.
Aviakompaniyaning imidji koʻp jihatdan styuard va styuardessalarga ham bogʻliq. Bizlar yoʻlovchi sifatida ularning tashqi koʻrinishiga, gapirishiga e’tibor beramiz. Fikr bir qator omillardan shakllanadi. Bizni samolyot bortida qanday kutib olishlari, istaklarimizga javob berishlari, ekipaj a’zolari uchun bizning xavfsizligimiz va qulay sharoitimiz birinchi oʻrinda turadigan yoʻlovchi kabi oʻzimizni his qilishimiz ham ahamiyatlidir.

### Eng muhimlari – kichik narsalarda

Parvozga tayyorgarlik paytida Amaliya aviatsiya xavfsizligi qiziqarli va ba’zan kutilmagan kichik narsalarda aks etishi haqida soʻzladi: uchuvchilarga turli taomnomalar taklif etiladi — agar zaharlanish sodir boʻlsa, ikkinchi uchuvchi safda qoladi. Yana bir jihat: bir oila a’zolari bitta reysga qoʻyilmaydi, chunki, favqulodda vaziyatda ular yoʻlovchilarni emas, balki bir-birini qutqaradi.
Zarur hujjatlardan tashqari, Amaliyaning yonida shaxsiy blogining ssenariylari yoziladigan yon daftarcha bor. Qahramonimiz oʻz Instagram akkaunti Amaliya_dushackaya da bortdagi hayotni sodda tilda, hazil bilan tasvirlaydi. Yana, u «koʻrinmas» voqealar , masalan, bort kuzatuvchisi boʻlish uchun qanday va qaerda oʻqish kerakligi haqidagi videoni suratga olishni reja qilmoqda.
Sahna ortiga qarab, samo qahramonlari ham biz kabi odamlar ekanini koʻrish doimo qiziqarli. Amaliyaning jamoa togʻrisidagi soʻzlaridan mehring joʻshib ketadi — ular bir-birini qoʻllab-quvvatlashadi, yordam koʻrsatishadi. Rahmdillik va empatiya chet ellik-mushuklarni boqish an’anasida ham aks etadi. Jamoa a’zolari qaysi mamlakatga borishidan qat’iy nazar, oʻzlari bilan mushuklar ovqatini olib, ularning boshpanalariga yordam koʻrsatadi.
Shunday qilib, parvozga qadar biz bort kuzatuvchilari oʻz ishlariga qanchalik mas’uliyat bilan yondashishini koʻrdik, qahramonimizning oʻz kasbiga mehrini toʻliq his etdik va har qanday vaziyatda ham, biz yoʻlovchilar ekipaj jamoasi uchun doimo birinchi oʻrinda turishimizni tushundik.

РЕКЛАМА



★ PENTA ★

# AKFA 6500

Yangi rom tizimining afzalliklari

5

## Penta

AKFA 6500 yangi rom tizimi — mukammal sifat, betakror dizayn va ajoyib texnik xususiyatlarining uyg'unligi.

Besh kamerali profil mukammal issiqlik va shovqin izolyatsiyasini ta'minlaydi. Profil ichidagi o'rnatilgan maxsus temir romni deformatsiyadan himoyalaydi.

15 dB dan

36 dB gacha

Besh kamerali profil va sifatli temir mustahkamlagich shovqinni sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi.

AKFA 6500 rom tizimi yuqori darajadagi issiqlik izolyatsiyasini ta'minlovchi innovatsion materiallardan ishlab chiqariladi.

akfa

akfagroup.com

TENGE BANK | mastercard

# Свобода в путешествиях с Mastercard World Black Edition

- Прохождение регистрации на рейс без очередей через Fast Track
- Страхование от утери багажа, задержки, отмены рейса и несчастных случаев
- Повышенный предполётный комфорт в 1100+ бизнес-залах Lounge Key
- Специальные скидки и предложения от партнёров




Отсканируйте для подробной информации

**1245**

www.tengebank.uz

Лицензия ЦБ РУз на проведение банковских операций №85 от 25 декабря 2021г.